
Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining oltinchi chaqiriq oltmish uchinchi sessiyasi bo'lib o'tdi

Bugungi sessiyada shahar hokim o'rinbosarlari, kun tartibiga kiritilgan masalaga daxldor tashkilot korxonalar rahbarlari taklif etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi PQ-172-son Qarorining 9-bandi hamda «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasi tomonidan joriy yil 16 maydagi o'tkazilgan yig'ilishi bayoni bilan tasdiqlangan «Qishloq va mahallalardagi mavjud ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining haqiqiy holatini baholash mezonlari to'g'risidagi tartib»ga asosan Farg'ona shahridagi 70 ta mahallalardagi mavjud ishlab chiqarish va infratuzilma ob'ektlarining haqiqiy holatini baholash bo'yicha tegishli ishchi guruh shakllantirildi.

Ishchi guruh tomonidan joriy yilning 14 iyun kunidan 20 iyun kuniga qadar shahardagi 70 ta mahalla fuqarolar yig'inlari barcha ko'rsatgichlar bo'yicha baholab chiqildi. Baholash natijalariga ko'ra, mavjud 70 ta mahallaning 47 tasi yaxshi, 21 tasi o'rta, 2 tasi og'ir hudud deb baholandi.

Sessiya ishida o'rganish va baholash yakunlari hamda ishchi guruh xulosasiga asosan shahardagi "Sharshara" hamda "Surxtepa" mahalla fuqarolar yig'inlari "Obod qishloq" va «Obod mahalla» dasturiga kiritish uchun tanlab olindi.

Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari tomonidan muhokama, taklif va mulohazalardan so'ng qaror loyihasi deputatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

2022-06-27 10:03:03